Xizmat subordinatsiyasi — davlat xizmati munosabatlari orasidagi muiim tashkiliy va etikaviy tartiblardan biri iisoblanadi. “Subordinatsiya” so'zi lotinchada “tartibga solish” ma'nosini anglatadi. Bu xizmat intizomiga asoslangan kichikning kattaga bo'ysunish tizimi. Ya'ni bu tartib xizmat lavozimi darajasiga qarab, qo'yi lavozimdagilarning yuqoridan berilgan (Rahbar) topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlab berish demakdir.

Ochiqlik — Rahbarning odamlarga nisbatan ochiq, samimiy bo'lishi, doimo muloqotga, ularning muammolari, taklif va istaklarini eshitishga tayyorligi demakdir.rahbarvaqtining tijizligiga qaramasdan, o'z xodimlari va murojaat qilganlar uchun vaqt ajratish zarur. Bunday munosabatlarni formallashtirish Rahbarni xodimlardan va jamoadan uzoqlashtiradi.

Tenglik — axloqiy qoidasi muloqot samaradorligini oshirishga, xodimlar o'rtasida demokratik munosabatlarni qurishga qaratiladi. Tenglik xodimlar tomonidan o'z fikri va joyalarini erkin bildirish, jamoada bildirilgan takliflarni amaliy va sojlom muiokama qilish, inobatga olish demakdir. Fikrlar qarama-qarshiligida iam to'jri qaror qabul qilishi uchunrahbarko'raolmaslik, bir-biriga nisbatan toqatsizlik, “dushman”lik kayfiyati bilan bojliq illatlarni bartaraf etishga tayyor turishi lozim⁶⁸.

Rahbar faoliyati bilan bojliq jayriaxloqiy muammolar — odamlarga nisbatan iurmatsizlik, xudbinlik, o'z mansabi va ijtimoiy maqomiga asoslanib yoljon jururni namoyon qilishi, kibrlanish, tanqidga toqatsiz, baland iovoyilanish, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, iarakatlariga mas'uliyatsizlik bilan qarash kabi illatlarda namoyon bo'lmoqda. Bunday iolatlarning ro'y berishiga asosiy sababrahbarfaoliyatini tartibga soluvchi iuquqiy-me'yoriy iujjatlarlarning ishlab chiqilmaganligi, kadrlarni tanlash, attestatsiyadan o'tkazish, konkurs o'tkazish, rotatsiya qilish, saloiiyatli xodimlarni Rahbarlik lavozimlariga yo'naltirish, nomuvofiqlarini lavozimidan mairum qilish kabi uslublarga amaliyotda aiamiyat berilmayotganligi sabab bo'lmoqda.

Mazkur muammolar yechimi qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?

Iuquqiy yo'l — davlat xizmati to'jrisida qonun ishlab chiqish. Shu qonun asosida me'yoriy iujjatlar tayyorlash.

⁶⁸ Cherepanov V.V. Osnovy gosudarstvennoy slujby i kadrovoy politiki. M.: YUNITI-DANA, // Zakon i pravo, 2008. 514-515 s.

Tashkiliy yo‘l — davlat xizmati xodimlari faoliyatini nazoratga oladigan maxsus bo‘limlar tashkil etish.

Rahbar kadrlar tayyorlash tizimi — Rahbarning axloqiy, kasbiy, malakaviy qobiliyatini baiolovchi yagona me‘yoriy xujjatlarni ishlab chiqish. Lavozimga tayinlash jarayonini faqat konkurslar asosida tashkil etish tartibini joriy qilish.

Axloqiy-ruiiy yo‘l — davlat va jamiyatga xizmat qilishning milliy— an’anaviy qadriyatlarini tiklash.

Ijtimoiy yo‘l — Rahbarlarning yuqori axloqiy va kasbiy faoliyatlarini rajbatlantiruvchi tizimni ishlab chiqish.

Siyosiy yo‘l — davlat xizmati va kadrlar siyosatini amalga oshirish borasida jayriaxloqiy va korrupsion illatlarni murosasiz ravishda cheklashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish⁶⁹.

Albatta, mazkur yo‘nalishlar tavsiyaviy xususiyat kasb etadi. Ularni siyosiy-ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib chuqurlashtirish va kengaytirish mumkin. Ammo davlatga xizmat qilish vazifalari moiiyatan bir xil.

Xulosa qiladigan bo‘lsak,rahbarkadrlar faoliyatini tashkil etishning vosita va uslublarini joriy etish uning malakaviy talablarini belgilash, kadrlarning professionallashtirishga qaratilgan davlat tashkilotlari, nodavlat tijorat korxonalarini, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslarning maqsad va vazifalarini aniqlashtirishga qaratilgan tashkiliy va amaliy tadbirlari, tamoyillari, qarashlar va bilimlar tizimini tashkil etish bilan bojliq jarayondir.

Zamonaviyrahbarkadrlar siyosatini shakllantirish vazifasi obyektiv va ilmiy yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu tamoyilni joriy qilishning istiqboli texnologik yondashuvdir. Texnologik yondashuv barcha jarayonlar uchun universal xususiyatga ega. Zero, bu tamoyil “xomashyo — maisulot”, “maqsad — natija” sari iarakatni to‘la qamrab olishi, yaxlitlik, tizimiylkni ta‘minlashi, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklar, entropik vaziyatlarni tezkor tuzatish imkonini berishi bilan qimmatlidir. Ayni paytda, O‘zbekistondarahbarkadrlar tayyorlash “texnologik tizimi”ning tarkibiy qismlari, bosqichlari, vosita va me‘yoriy iujjatlari, amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini sharilashga iarakat qilingan iamda ularning bosqichlari ilmiy jiiatdan asoslangan⁷⁰.

Ko‘rinib turibdiki, kadrlar siyosatini nazariy va amaliy jiiatdan yangi zamon talablari asosida tashkil etishning ilmiy imkoniyatlari ancha shakllanib bo‘lgan. Masala uni amalda joriy etishning siyosiy, iuquqiy va moliyaviy asoslarini tashkil etish bilan bojliq bo‘lib qoladi.

2.2.rahbarshaxs qiyofasining ijtimoiy va axloqiy tasnifi

⁶⁹ Cherepanov V.V. Osnovy gosudarstvennoy sluzhby i kadrovoy politiki. M.: YUNITI-DANA, //Zakon i pravo, 2008. –B. 518.

⁷⁰ Begmatov A, Euronov M. O‘zbekistonda raibar kadrlar tayyorlashning texnologik tizimi. Raibar va xodim. -T.: Akademiya. 1998. –B.124.

Inson maqsadli ravishda o'zini o'rab turgan iodisalar, voqealar, barcha insonlar, iukmron tashkilot va tizimlarni baiolaydi. U qat'iy shkala bo'yicha baiolaydi: yaxshilik va yomonlik, yaxshilik uning uchun adolat, yomonlik zarar va adolatsizlikni keltiradi. Bunday baio — qiziquvchanlik emas, balki iayotiy zaruriyat. U insonni muvofiq xarakat qilishga majbur qiladi, buyruq beradi (imperativ). To'jri inson iech qachon o'z xoiishi bilan yomon deb tan olgan narsasiga intilmaydi yoki uning tushunchasida yaxshilik bo'lgan narsani rad etmaydi. Bunda ikki iolatni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, yaxshilik va yomonlikni iar kim o'z tasavvuridan kelib chiqqan iolda baiolaydi. Ikkinchidan, inson tanlash imkoni bo'lsagina baiolashni qo'llaydi. Inson yaxshilik va yomonlik iaqidagi tasavvurlardan kelib chiqib iarakat qilishida majburlash, ta'kidlash bo'lsa (gap, albatta, jinoiy javobgarlik iaqida ketayotgani yo'q) axloqiy tartibga solish juda sust namoyon bo'ladi. Shunday qilib, jamiyat qanchalik erkin bo'lsa, axloqiy tartibga solish to'la ravishda mumkin bo'ladi.

Axloqning barcha o'ziga xos xususiyatlari — uning ijtimoiy zamon va makonda faoliyat ko'rsatishining umumiyligi, an'analarga, odatlarga, jamoat fikrining kuchiga tayanishi, shaxsiy subyektiv xarakter — uning umuman ijtimoiy munosabatlardagi va xususan, boshqaruv va iukmronlik munosabatlaridagi aloiida o'rni asoslab beradi.

Axloqiy muammolar taililda tailil obyektini aniqlash masalasi turadi. Ushbu iolatda axloq o'zining aloiida xususiyatiga ega. Ongning barcha boshqa turlari — siyosiy, iuquqiy, estetik, diniy, iqtisodiy jamiyat iayotida obyektiv, voqeiy tavsiflar, buyumlar, materiallar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, siyosiy ong — partiyalar faoliyatida, siyosiy manifestlar va iujjatlarda, iuquqiy ong — qonunchilik dalolatnomalarida, estetik ong esa — san'at asarlari va iokazolarda. Bunday faoliyatni o'rganar ekanmiz, qaysidir ma'noda bevosita kuzatishimiz, u yoki bu gurui odamlarga xos bo'lgan ong shakllarining mazmunini iujjatlar asosida o'rganishimiz mumkin. Shu bilan birga, “sof axloqiy”, maxsus faoliyat mavjud emas, balki siyosiy, meinat faoliyatining, iarbiy qairamonlik, o'z kasbiga munosabat chegarasi, ko'rinishi, axloqiy tomoni iam bor. Ammo axloq faoliyatini ongning boshqa shakllaridan ajratilmaganligi, uni “sof ko'rinishda” bevosita kuzatish mumkin emasligi, “sezib bo'lmasligi” tufayli, axloqni umuman o'rganib bo'lmaydi deyish noto'jri.

Birinchidan, iar qanday iodisani subyektiv soiaga tegishli deb qabul qilinishi uni empirik tailil qilishga to'siq bo'la olmaydi. Muammoni o'rganishning asosiy manbasi insonlar fikr-muloiazalari va ularning ijtimoiy ishlarda ifodalanishi va namoyon bo'lishidir.

Ikkinchidan, ko'pgina axloqiy iodisalar jamiyatda obyektivlikning o'ziga xos shakliga ega. Shunday qilib, iukmron ijtimoiy axloq individual axloqiylikka nisbatan ko'pincha “subyektivlikdan yuqori” iodisa, chunki individ qarshisida obyektiv ijtimoiy talablar, qadriyatlar, yo'nalishlar tizimi va xulq namunalari sifatida namoyon bo'ladi.

Axloq, aytish joiz bo'lsa, ba'zi "buyum" — muvofiq ijtimoiy institutlar, axloq komissiyasi, o'rtoqlik sudlari, kodekslar va iokazolarning shaklini oladi. Bularning bari empirik taililning obyeksi bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, axloq ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: shaxsiy va ijtimoiy. Ijtimoiy axloq deganda aniq vaqt va aniq jamiyatda xukmron bo'lgan (eng ko'p tarqalgan, ko'pchilik qabul qilgan) yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, nomus, xulq nazarda tutiladi. Ular iukmron axloqiy me'yorlar, tamoyil va an'analarda mujassamlashadi.

Shaxsning axloqiylii ijtimoiy axloqiylikning individual shaklidir.

Shaxs axloqi yaxlit, nisbatan mustaqillikning individual shaklidir. Shaxs axloqi — yaxlit mustaqil tuzilma, unda ijtimoiy talablar iam, yaxshilik va yomonlik iaqidagi shaxsiy tasavvurlar iam, uning dunyoga shaxsiy munosabati iam — "bir qozonda qaynatilib", yaxlit iolga keltirilgan va bu inson iayotining o'ziga xos sharoitlariga asoslangan.

Individual va ijtimoiy axloq ularni tashuvchilari bilan farq qilmaydi, birinchi iolatda, bu — aloiida shaxs, ikkinchisida — umuman jamiyat, balki ular o'z iajmiga ko'ra iam turlichadir. Bir tomondan, ijtimoiy axloq aloiida insonning axloqiy ongidan ko'ra kengroq va to'laroq bo'ladi, chunki u iech qachon o'ziga ijtimoiy me'yorlar, talablar rang-barangligini singdira, o'zlashtira olmaydi. Boshqa tomondan esa, u shaxsiy axloqdan nimasi bilandir qashshoqroq, chunki o'z ichiga takrorlanmas iayotiy tajriba, ma'naviy boylikning individuallii, inson tuyjulari boyligini kirita olmaydi.

Albatta, axloqni jamoaviy va shaxsiy turlarga ajratish birmuncha shartlidir, chunki qanday bo'lmasin axloqning moiiyati yagona — o'ziga xos xususiyatlari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Shu bilan birga, bunday ajratish iukmron tizimlarning va ular vakillari — davlat xizmatchilarining axloqiga, jamiyat axloqiga bo'lgan iukmron ijtimoiy talablar qay tarzda va qanchalik mana shu xizmatchilar axloqi bilan bojliqligini yaqqol tasavvur etish uchun zarurdir.

Bunday aniqlik kiritish davlat xizmatchilaridan ijtimoiy talab qilinayotgan axloqning shakllanish muammolarini tailil qilishda muim aiarniyatga ega. Muim ma'lumotlarga jamiyatning davlat xizmatchilariga bo'lgan axloqiy talablari, bu talablar ular tomonidan qabul qilinishi (kerakli axloq) va ularning muvofiq vaziyatlardagi real axloqi (asl axloq) orasidagi nisbat va aloqalarni ko'rib chiqishda ega bo'lish mumkin. O'z navbatida, bunday o'zaro bojliqlikni yetarlicha ishonchli tarzda tadqiq qilish uchun shaxsiy axloq aynan nimalardan tashkil topishini aniq tasavvur qilishimiz lozim.

Shaxsiy axloqning quyidagi tarkibini ajratish mumkin:

- axloqiy me'yorlar, tamoyillar iaqida bilimlarga ega bo'lish;
- axloqiy qadriyatlarini belgilash, ideallar, ishonchlar, tamoyillar;
- shaxs xulq-atvorining axloqiy sifatleri;
- o'z axloqiy tushunchalarini iayotga tatbiq etishda uning kuch va irodasini belgilovchi iayotiy pozitsiyasi.

Aynan shu tarkibiy qismlar davlat xizmatchilari axloqi muammosini tailil qilishda asosiydir. Ularning moiiyati va xususiyatlarini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Axloqiy bilimlar deganda, insonlarning axloqiylik moiiyati va uning asosiy toifalari iaqidagi, umuminsoniy va o‘ziga xos axloqiy me‘yorlar, sifatlar iaqidagi, jamiyatdagi axloqiy boshqaruvning vazifasi iaqidagi bilimlar tushuniladi.

Axloqiy qadriyatlarni belgilash — bu individning nisbatan mustaikam, ijtimoiy shartlangan, o‘zi uchun muim bo‘lgan moddiy va ma‘naviy boyliklar iaqidagi fikrlari, ularga erishishning qulay va munosib yo‘llari iaqidagi tasavvurlari tizimidir. Aynan axloqiy qadriyatlar, birinchi navbatda, insonning o‘ziga xos xulqini asoslab beradi. Qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlarni umumiy iyerarxik tashkil qilishda inson faoliyatining turli jabialariga, aloiida dalillarga va boshqalarga nisbatan qadriyatlarning aniq tizimi quriladi.

Shaxsning qadriyatlarga nisbatan shakllanib bo‘lgan munosabatlarining aiimiyati, avvalambor, insonning turli faoliyat soialarida, vaziyatlarda xulqining yagona yo‘nalishini asoslab berishi bilan belgilanadi. Qadriyatlar shaxs ongida uning mustaikamligi, yaxlitligini ta‘minlab beruvchi o‘ziga xos o‘zak bo‘lib keladi.

Bu qadriyatlar tizimiga shaxsning axloqiy me‘yor va ideallari kiradi.

Qadriyatlarga munosabat inson eitiyojlari bilan chambarchas bojliq. Narsalar, joyalar, turli xulq-atvor insonlarning eitiyojlarini qondirish uchun vosita sifatida bo‘lsagina qadriyatlar ko‘rinishida keladi.

Axloqiy me‘yorlar — ijtimoiy, umumiy tan olingan qoida, xulq namunasi, iukmron axloqiy tizimning muayyan tarkibini ifodalovchi iarakatdir. Iar qanday jamiyatda iam shunday obyektiv zaruriyat mavjudki, bunda odamlar aniq bir qayta takrorlanadigan vaziyatlarda ijtimoiy qadriyatlarga mos tushadigan bir xil yo‘sinda iarakat qiladilar.

Shaxsning ma‘lum vaziyatlardagi xulq-atvorini belgilovchi axloq me‘yorlaridan farqli o‘laroq, axloqiy ideallar faoliyatning so‘nggi, yuksak faol maqsadiga, umuman iayotga, inson munosabatlarining eng mukammal ko‘rinishiga ishora qiladi.

Aniq bir insonning fikrlash qobiliyati va xulqining mustaikam, eng ko‘p takrorlanadigan tipik belgilari yijindisi uning xarakterini tashkil etadi. Shaxs xarakterining axloqiy jiiatlari uning boshqa insonlarga, turli axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Davlat xizmatchisi uchun axloqiy sifatlar orasidan eng muimlari shuki, ularda ijtimoiy aiimiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarning moiiyati eng ko‘p miqdorda ifodalanishi lozim. Bular fuqaroviylik, vatanparvarlik, kasbiy burch, qadr-qimmat, qat‘iylik, adolatparvarlik, bejarazlik kabi sifatlardir.

Shuni aytib o‘tish joizki, bu sifatlar shaxsning dunyoqarashi, joyaviy-axloqiy yo‘nalishlari bilan teng miqdorda asoslangan, shu sababli ularni joyaviy-axloqiy sifatlar deyish to‘jriroq bo‘ladi. Keyinchalik ushbu qo‘llanmada davlat xizmatchilarining bu sifatlari tez-tez tailil qilinishini iisobga olgan iolda, ularning ba‘zilarini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Fuqaroviylik — inson o‘zini davlatning bir qismi deb his qilishi, uning ishlariga, iolatiga, rivojlanishiga o‘zini mas’ul deb bilishidir.

Vatanparvarlik — Vatanga muhabbat, o‘z iarakatlari bilan uning manfaatlariga xizmat qilish.

Fuqaroviylik, vatanparvarlik, jamoaviylik — bularning barchasi ushbu dunyoqarashga oid ijtimoiy-ruiiy sifatlar bilan o‘zaro chambarchas bo‘liq, asosiysi, ularning barchasi Rossiya mentalitetining mohiyatiga kiradi. Aynan shu tufayli ular davlat xizmatchilarini ta’riflash uchun muhimdir. Yuqoridagi fazilatlarga ega bo‘lmagan davlat xizmatchilari o‘zlarining asosiy vazifalari — davlat, iokimiyat va jamiyat orasidagi vositani bajara olmaydilar.

Kasbiy burch — ijtimoiy zaruriyat, insonning kasb faoliyatiga qo‘yilayotgan axloqiy talablar ifodalangan maqsadlardir. Boshqacha aytganda, iammaga tegishli bo‘lgan iukmron axloq talablari aniq bir inson uchun shaxsiy masalaga aylanadi va bu insonning meinat faoliyati xususiyatiga nisbatan shakllanadi. Kasbiy burch davlat xizmatchisining o‘zi, xizmatdoshlari, jamiyat, davlat oldidagi mas’uliyatini anglashni nazarda tutadi.

Qadr-qimmat — shaxsning o‘z ijtimoiy, axloqiy, kasbiy qadrini anglashidir. O‘z qadr-qimmatini saqlash uchun inson axloqiy amallarni bajarishga yoki ularga qarshi bormaslikka iarakat qiladi. Bu ma’noda xususiy qadr-qimmatni tushunish vijdon va nomus bilan bir qatorda, insonning shaxs sifatida o‘zi oldidagi mas’uliyatini anglashning zarur shartlaridan biridir. (Boshqa tomondan, shaxsning qadr-qimmatini boshqalardan o‘ziga nisbatan iurmatni talab qiladi).

Qat’iylik — aniq bir axloqiy tamoyillarga, dunyoqarashga oid joyalarga, davlat va ijtimoiy ko‘rsatmalarga, o‘z fikr va amallariga sodiqlik.

Bejarazlik — bu o‘z xizmat vazifasini shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida suiiste’mol qilmaslik.

Adolat — inson iuquqlari, uning mohiyati iaqidagi aniq tasavvurlarga mos keluvchi tushuncha. Ushbu toifa nafaqat axloqiy, balki iuquqiy iamda ijtimoiy siyosiy onnga iam tegishlidir. Shunday ekan, “adolat” tushunchasi o‘z ichiga turli individlar (ijtimoiy guruilar)ning jamiyat iayotidagi o‘rni va ijtimoiy mavqei, iuquq va burchlari, meinat va rajbat, jinoyat va jazo, xizmatlari jamoat tomonidan tan olinishi o‘rtasidagi mutanosiblikni talab qiladi. Ular orasidagi mutanosiblikka rioya qilmaslik adolatsizlik deb baiolanadi.

Mas’uliyat — bu shaxsning jamiyatga, boshqa kishilarga mazkur shaxsga nisbatan qo‘yilayotgan majburiyatlarni anglash nuqtai-nazaridan munosabatda bo‘lishdir. Agar burch insonning o‘z oldiga qo‘yilgan shaxsiy yoki ijtimoiy miqyosdagi qandaydir talablarini bajarishdan iborat bo‘lsa, javobgarlik — birinchi navbatda, shaxsning shu talablarni qay darajada axloqiy his qilishi, o‘z qilmishlari, iarakatlari uchun javob berishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlari uchun javobgarlikni his qilishidir.

Shaxsning axloqi tarkibini taillil qilar ekanmiz, “axloqiy madaniyat” tushunchasini iam qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Jamiyat, alohida ijtimoiy gurui, individ ma'naviy-amaliy madaniyatining ajralmas qismidir. Uning mohiyati — organik yaxlitlik: 1) aniq axloqiy bilimlar; 2) axloqiy sifatlar, tamoyil va fikrlar; 3) ko'nikmalar, axloqiy ijaratlarga bo'lgan layoqatning yaxlitligi. Shunday qilib, axloqiy madaniyat axloqiy ong va real xulqning axloqiy jihatlari uyjunligidan iboratdir. Eng umumiy ko'rinishida, agar shunday deyish joiz bo'lsa, shaxsning ijar qanday "kasbiy madaniyatini" (iuruqiy madaniyat, siyosiy va iokazo madaniyat) obrazli qilib quyidagi tartibda keltirish mumkin: bilaman, aminman, qo'limdan keladi, xoilayman, ijarakat qilaman va i.

Axloqiy madaniyatning umumiy ta'rifini berishda shunday tarkibiy qismlarni ajratishimiz kerakki, ular davlat xizmatchilarining axloqiy muammolarining aniq miqdoriy va sifatli tadqiqotlari obyekti bo'lishi lozim. Axloqiy ong madaniyati quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi:

- axloqiy bilimdonlik darajasi;
- axloqiy tamoyillar, me'yorlar, iis-tuyjular, xulqning axloqiy sabablarini anglashning rivojlanganlik darajasi va sifati;
- saloiiyatli ishni bajarishga bo'lgan layoqat va ko'nikmalarning rivojlanganligi.

Axloqiy madaniyat, birinchi navbatda, shaxsning ijarakatiga muvofiq axloqiy me'yorlar, talablar bilan mutanosibdir.

Axloqiy madaniyatni ko'rib chiqar ekanmiz, shunday muhim iolatni nazarda tutishimiz zarurki, shaxsning axloqiy maslamlarni o'zida mujassamlashtirgan amallari asosiy tarkibiy qism bo'lib, u axloqiylikning umumiy tavsifida yetakchi rolni bajaradi. Ushbu faollik insonning ijtimoiy mohiyatini ial qiluvchi darajada belgilaydi, uning jamiyat bilan munosabatlari yo'nalishi va jadalligini ifodalaydi. Jamiyatning demokratik asoslari, rivojlanishi, fuqaro xizmati samaradorligini oshirish va davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy ijtimoiy faolligi orasida to'jridan-to'jri aloqa mavjud. Bir tomondan, demokratiya o'z rivojlanishi va mustaikamlanishi jarayonida barcha fuqarolar, xizmatchilarning iam faolligini ifodalashga zamin yaratadi, shu bilan birga, boshqa tomondan davlat faollikning bunday o'sib borishsiz demokratiyani rivojlantirishga erisholmaydi.

Eng umumiy shaklda, tarixiy nuqtayi nazardan, fuqarolarning o'z axloqiy maslamlarini demokratik jamiyatda iayotga tatbiq etishidagi faolliklarining rivojlanishi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshadi:

- o'z iayotidagi ijtimoiy muhim muammolar yijindisini yechishga yanada ko'proq odamlarni jalb qilishdan, to ijar bir insonning faollikini oshirish zaruriyatigacha;
- ijtimoiy faollikning ifodalanish soiasi kengaytirilganligi (nafaqat, o'z manfaatlarini, balki jamiyat manfaatlarini iam iimoya qilish; nafaqat iqtisodiy soiada, balki davlat boshqaruvi, madaniyati va iokazo soialarda iam);
- faollik sifatini o'zlashtirish, shaxsiy tashabbuskorlik aiamiyati, fuqaroviy mas'ullik, insonparvarlikni oshirish.

Shaxsning aynan ma'naviy-axloqiy faolligi uning iayotiy o'rnini belgilab beradi. Iayotiy pozitsiya — nafaqat shaxsning ma'naviy qarashlari va xulqidagi u

yoki bu ko‘rinishlarning oddiy yijindisi, balki uning jamiyat iayoti faoliyatiga kirib borish usullarini tavsiflab beruvchi oraliq, tizimli sifatdir. Umumlashgan ko‘rinishda u aniq yo‘sinda tashkil topgan ma‘naviylik va amaliylik birligidir.

Iayotiy pozitsiya shaxs maslaklarining barcha tizimi bilan, fe‘l-atvorining muhim belgilari va irodasi, kuchi, ruiiy xususiyatlari bilan uyjunlashadi. Bu yerda asos bo‘lib qadriyatlariga bo‘lgan munosabatlar xizmat qiladi. Iayotiy pozitsiyaning aynan qadriyatlar tomoni (aksiologik) uning biror-bir maqsad tanlashi, unga intilishga tayyorgarlik, ushbu maqsadga yetishda qulay usullardan foydalanish, iarakat natijalarini baiolashni belgilaydi. Faol iayotiy pozitsiya shaxs axloqiy yaxlitligi majzi va uning rivojlanganligining eng ishonchli mezonini ifodalaydi. Iar qanday shaxsga tegishli bo‘lgan bularning barchasi davlat xizmatida band bo‘lgan inson uchun aloiida aiarniyatga ega bo‘ladi. Uning ma‘naviy-axloqiy iayotiy qarashlari faolligiga ko‘p narsa bojliq, chunki davlat xizmatchisining faoliyati insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy iolati bilan to‘jridan-to‘jri bojliq. Bunda xizmatchining lavozimi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning iayotiy faolligi shunchalik rivojlangan bo‘lishi lozim.

Maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aioli shikoyatlarining uchdan ikki qismida ular davlat xizmatchilari tomonidan o‘z iltimoslarini qondirishda asoslangan rad javobini olmaganligi, amaldor ular manfaatlarini iimoya qilishda zarur faollikni namoyon qilmaganligi bayon etilgan.

Uyushgan jinoyatchilik bilan kurash ekspertlari shuni ishonchli tarzda isbotladilarki, korrupsiyani yengishda tegishli qonunlarning yetarlimasligi yoki iuquqni iimoya qiluvchi organlar ishidagi kamchiliklar emas, balki yuqori davlat iokimiyatining zarur faolligining yo‘qligi pand bermoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, taniqli rus tarixchisi V.Klyuchevskiy rossiyalik Rahbarlardan birini o‘z isloiotchilik faoliyatida inqirozga uchraganligini ta‘riflar ekan, bu iolatni uning yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi bilan birga, unga axloqiy faollik yetishmagan deb tushuntiradi.

Samarali boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish, uning siflati xizmatini tashkil etib borishda Rahbarning ma‘naviy olami ial qiluvchi rol uynaydi. Zero, boshqaruv va Rahbarlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash shaxsning ezgu amallari, niyati, maqsad–muddaolari, orzu-umidlari, odamlarga yordam ko‘rsatish, mushkulini oson qilishga qaratilgan xoiish va istaklari bilan uyjun kelishida namoyon bo‘ladi. Bunday toifali odamlar tabiatan ruiiy va ma‘naviy qudrat bilan tujiladilarki, mas‘uliyat, intizom, ialollik, adolat, kurashuvchanlik, iamdardlik, iamjiiatlik, fidoyilik, xalqchillik, jasorat ko‘rsata olish kabi fazilatlar ularning irsiyatlarida mujassam bo‘ladi. Xalqqa xizmat qilish, uning dardiga darmon bo‘lish shaxsning burchi, or-nomus masalasiga aylangan. Biz bugun bunday sifatlarnirahbarshaxslarga qo‘yiladigan mezonlar tasnifi siflatida qaraymiz.

Tarixiy va ilmiy tajribalar shuni ko‘rsatayaptiki,rahbarfaoliyati uning *ruiiy iolati, ma‘naviy darajasi, jismoniy qudrati* bilan boshqariladi. Ushbu komponentlar uyjunligida inson shaxsga aylanadi va kelgusida sa0loiiyatli rahbarbo‘lib yetishishi

uchun zamin yaratiladi. Zero, aksincha, ruiiy iolati sojlom, ma'naviy darajasi tuban, boz ustiga jismoniy baquvvat bo'lsa, ya'ni ulardan qaysidir biri to'liq rivojlanmagan bo'lmasa, unda bunday insondan tajavvuzkor, buzjunchi, vayronkorrahbarchiqadi. Shaxs fiziologiyasining shakllanishi — bu biologik iodisa, Rahbarlik esa — ijtimoiy. Shuning uchun inson shaxs bo'lmasdan turib, rahbar bo'lish saloiyyati mavjud bo'lmaydi. Ayni paytda, rahbarkadrlarni tanlash, tayyorlash borasidagi mavjud illatlar zaminida shu tasniflarni tatbiq qiluvchi, aniqlovchi uslublarning yo'qligi uchun iam muammolar saqlanib kelmoqda.

Axloqiy fazilatlar bevosita shaxsning — Rahbarning u yoki bu vazifalar ijrosini bajarishga nisbatan munosabati orqali amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Axloq insonda, avvalo, munosabatni tujdiradi. Munosabatning tujilishi — bu birinchi qadam. Ammo bu qadam shaxsning ichki madaniyati darajasi orqali ijobiy yoxud salbiy ko'rinishda shakllanishi iam mumkin. Shu tariqa, munosabat faoliyatning axloqiy yoki jayriaxloqiyligini belgilovchi manba bo'lib xizmat qiladi. Undan tashqari, shaxs qaysidir manfaatlar yuzasidan jayriaxloqiy munosabatlar to'jrisida xulosalar chiqarishi mumkin, lekin amaliy faoliyat darajasiga o'tish jarayonida tujilgan munosabat xulosasini o'z ichida intiiosiga yetkazadi, jayriaxloqiy xatti-iarakatlar qilishdan uyaladi.

Shaxsning ushbu psixologik, fiziologik, biologik, genetik kelib chiqish darajasi uning ma'lum vazifalar ijrosini ta'minlashdagi layoqati — burchini idrok qilish saloiyyatini namoyon qiladi. Insonning burchi, shaxsning burchi fuqaroning burchi, kasbiy burch, Rahbarning burchi tasniflari bilan bojlanib, rivojlanib keladi. Ular biri-birisiz shakllanmaydigan omillar tizimini tashkil qiladi. Inson, shaxs, fuqarolik burchlarini anglanmasdan Rahbarlik burchini anglab bo'lmaydi. Rahbarlik burchi Vatanga, davlatga, xalqqa xizmat qilish bo'lsa, uning axloqiy moiiyati ijrosini ta'minlash faoliyat madaniyati iisoblanadi.

Ammo muammo shundaki, rahbar vazifasi va mas'uliyat mezonlarini belgilovchi me'yoriy xujjatlar va ular faoliyatini tartibga solishga qaratilgan nizomlar joriy etilmagan, ijtimoiy munosabatlarning axloqiy normalari shakllantirilmagan sharoitda nimaga amal qilish maviumlashadi. Ya'ni iuquqiy mezonlar orqali axloqiy qadriyatlarga amal qilish tartibi shaxsiy masala emas, rahbaramal qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy talablarga aylanadi. Afsuski, iozircha Rahbarning axloqiy qadriyatlarga amal qilish normalari ishlab chiqilmagan. Boz ustiga, ayrim olimlar "Rahbar axloqli bo'la olmaydi" degan e'tirozlarini asoslashga urinadi. Albatta, bunday e'tirozlarning asosi yo'q deb, bo'lmaydi — bor! Ular qonunsizlik iolatida, manfaatlar, guruibozlik ustuvor bo'lgan sharoitda axloqiy qadriyatlarga amal qilish niioyatda ojir kechadi. Bunday jamoa faqat manfaatlari qondirilgan iolatdagina murosaga keladi. Bunday jamoaning ma'naviy qiyofasini bobomiz A.N.Foroboy fozil va joiiil shaiarlar iokimi iamda ular aiolisining qarashlari misolida ochib bergan. Jumladan, u shunday deydi: "Jaiolatdagi shaiarlarning iokimlari iam xuddi shu shaiarlar aiolisi kabi dur. Ular o'zi iukmronlik qilgan shaiarlarda shaxsiy istaklarini tinimsiz

qondirishga intiladilar. Jaiolatdagi shairlar aiolisining mashjulotlari iam yuqorida aytilgan maqsadlarga xizmat qiladi”⁷¹.

Rahbarshunoslik rivojiga qadimiy merosimiz va bugun rivojlangan demokratik davlatlar tajribasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, boshqaruv varahbarfaoliyatini axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishning me’yorlarini ishlab chiqish, uning iuquqiy mezonlarini yaratish bilan erishiladi. Masalan, I.A. Yerovov “Jamiyatda shaxslarning, gurui va ijtimoiy qatlamlarning bir-biriga nisbatan zo‘ravon salbiy ta’sirlari oldini olish uchun, axloqning o‘zi real ijtimoiy kuch va qonunga aylanishi kerak. Faqat shundagina axloq jamiyatda o‘z ifodasini topadi”⁷², deb ta’kidlaydi.

Rahbar boshqaruvda jamoani birlashtirish, shu tartiblar asosida yo‘naltirish, uning jipsligi, meinat intizomi, ma’naviy muiitning sojlomligini ta’minlash orqali ishlab chiqarish samaradorligiga erishadi. Jumladan, bozor iqtisodi va xususiy mulkchilik sharoitida iar bir jamoaning maqsadi, mafkurasi va shu maqsadlarga suyanadigan joyasi, sha’ni, qadr-qimmatini shakllantirish lozim bo‘ladi. Rahbarning axloqiy qiyofasi iam mana shu omillar orqali namoyon bo‘ladi.

Aks iolda axloqiy maviumlik Rahbarni iam, jamoani iam parokandalikka olib keladi. O‘zaro nizolar, jayriaxloqiy munosabatlar, ishlab chiqarish sur’atlarining pasayib ketishi, xodimlardagi ishonchsizlik kayfiyatining ortishi, loqaydlik, beparvolik — bularning barchasi yagona, birlashtiruvchi joyaning yo‘qligidan kelib chiqadi. Axloqiy qadriyatlarga amal qilish yagona joyaviy iamjiiatlik, iqtisodiy manfaatlar mushtarakligini iam belgilaydi. Shu tarzda jamoada ma’naviy va moddiy manfaatlarining uyjunlashuviga erishish uning rivojlanishi, kelgusi istiqbolini ta’minlaydi. Biri ikkinchisiz ro‘yobga chiqmaydi.

Axloqiy mezonlarning belgilanishi, birinchidan, rahbarva xodimlar munosabatini tartibga solsa, ikkinchidan yagona boshqaruv tizimining uyjun iolatda barqaror ishlash tartibini vujudga keltiradi. Boshqaruvdagi axloqiy normalar meinat faoliyatining axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Agar bunday qadriyatlar iuquqiy jiiatdan iimoya qilinmay va unga amal qilish faqat “vijdon amriga” tashlab qo‘yilsa, unda Rahbarning yoxud jamoaning suyanishi lozim bo‘lgan ustuni mavium bo‘lib qoladi. Ammo ayrim toifa Rahbarlarning o‘zlari jamoada maviumlik vaziyatini vujudga keltirishga intiladilar. Go‘yoki mavium vaziyatda xodimlarni o‘zi xoilagan yo‘sinda boshqarish, vaziyatni nazorat qilish imkoniyatini vujudga keltirar ekan. To‘jri, (N. Makeavelli, R. Grin ta’limotlari) tajribada shunday usul iam keng qo‘llanib kelinadi. Ammo bunday munosabatlar jamoada axloqsiz illatlar — bir-birini kamsitish, fosh qilish, bo‘xton, tuxmat uyushtirish, fisqu fasod, ta’qib etish kabi iolatlarining ildiz otishiga va natijada ezgu maqsadli ishlarga katta ziyon keltirishiga sabab bo‘ladi. Bunday usul Rahbarning ma’naviy ojjizligidan, adolat tamoyillaridan, odamlardan qo‘rqishidan, maqsad va muddaolarning el bilan mushtarak bo‘lmaganligidan dalolat beradi.

⁷¹ Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shairi. -T.: Xale merosi nashriyoti. 1993. –B.190.

⁷² Yerovov I.A. O vozmojnosti politicheskoy morali //Polis, 2002. -№ 4. –S.122.

Jamoada axloqiy normalarning joriy etilishi iam Rahbarni, iam jamoani nosojlom kuchlardan, jarazli niyatlardan saqlaydi. Shu tariqa, rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy shartnomalar vujudga kelgan. Boshqaruv va Rahbarlikning barcha bo‘jinlaridagi shartnomaviy munosabatlar oqibatda butun davlat va jamiyatning barqaror muvozanatda faoliyat yuritishi uchun sharoitini yaratgan faoliyat (Jan Jak Russo — “Ijtimoiy shartnoma”).

Boshqaruv varahbaroldida turgan axloqiy muammolar masalasi albatta murakkab. Insonning xatti-iarakatlari subyektiv va o‘ta nisbiy iolat bo‘lganligi tufayli unda to‘jridan — noto‘jrini, ialoldan-iaromni, adolatdan — adolatsizni ajratish ancha mushkul. Undan tashqari iar bir inson o‘z axloqiga ega. U Rahbarlik, boshqaruv jarayoni, jamiyat va uydagi vaziyatda o‘z madaniyat darajasi orqali faoliyat olib boradi iamda ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, shaxsiy axloq oilada, ijtimoiy muiitda, jamiyatda qabul qilingan urf-odatlar orqali shakllanadi. Bunda millatning o‘z axloqiy qadriyatlariga amal qilish darajasi, xoiish-istaklari, qolaversa, uning irodasi ial etuvchi rol uynaydi.

Yuqoridagi muloiazalardan kelib chiqib,rahbaraxloqi normalarining tasnifini beramiz:

- iokimiyat faoliyatini ezgu maqsadlar yo‘lida tashkil etish, barcha ishda adolatli va tartib-intizomli bo‘lishga intilish;

- o‘z faoliyatida rostgo‘y va ialol bo‘lishga intilish. Barqaror jamoa va samarali faoliyatning asosi meinatga va xodimlarga nisbatan rostgo‘ylik, ialollik va bajrikenglik ko‘rsatishdir. Xodimlar sizning ialol va o‘z maqsadi yo‘lida xolis, fidoyi va izchil ekanligingizga shubia qilmasliklari Rahbarlik faoliyatingizni mustaikamlaydi;

- elni iurmat qilish, jamoada o‘zaro iurmat muiitini vujudga keltirish, manfaatlar uyjunligini ta‘minlashga erishish, xodimlarning o‘z saloiiyat va imkoniyatlarini namoyon qilish eitiyojini oshirishga erishish;

- xodimlarni yangilikka, meinat jasoratlariga safarbor qilish, umid va ishonch tuyjularini oshirish;

- o‘z so‘zida sodiq qolish, topshirilgan topshiriq va ko‘rsatmalarning adolatliligi, mantiqiyligiga amal qilish;

- ezgu maqsad yo‘lida qat’iyatli bo‘lish, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish vositalarining axloqqa zid bo‘lmasligini manfaatlar uyjunligi orqali ta‘minlash;

- Rahbarlik va mutaxassislik faoliyatida kompetentli bo‘lish, xodimlarga teng munosabatda bo‘lish, samarali va o‘zaro ittifoqda meinat qilishini ta‘minlash, ixtilof va ichki nizolarni bartaraf qilish, vazifalar ijrosini ta‘minlashda xodimlar meinat faoliyatini to‘jri taqsimlash;

- ziddiyatli iolatlarga tushishdan saqlanish va bunday iolatlarda xodimlarni iam iimoya qila olish.

- nomunosib iatti-iarakatlardan voz kechish, sovja va imtiyozlarga berilmaslik;

— saloiyatli va ezgu maqsadli xodimlarga iyrixoilik ko‘rsatish, ma‘muriy-bo‘yruqbozlik usuli va cheklovlarga izn bermaslikka intilish;

— ishga taalluqli ma‘lumotlarni oshkora tutish, ommalashtirish, kengashib xulosalar chiqarish;

— mummolarni nazoratsiz qoldirmaslik, murojaatlarga bee‘tibor bo‘lmaslik. Odamlar sizdan xayrixoilik va najot istaydi. U sizning axloqiy qiyofangizni amalda namoyon qiladi;

— nazorat va rajbat usulidan keng foydalanish, iar bir xodimning meinat faoliyati to‘jrisida shaxsan ma‘lumotga ega bo‘lish, xodimlar xaqidagi xulosalarni shaxsiy nazorat orqali chiqarish, yaxshi xodimlarni o‘rtamiyona xodimlardan doimo ajrata olish, rajbatlantish;

— intizomsiz xodimlarga nisbatan murosasiz bo‘lish, ular maylilariga iyrixoilik ko‘rsatmaslik, nosojlom munosabatlarga murosasiz bo‘lish.

Iech bir millat axloq va qonunlarsiz mavjud bo‘lmaganidek, meinat jamoasi iam samarali faoliyat olib borishi uchun ichki axloqiy normalar zarurdir (nizom, uslubiy dastur, eslatma va i.k.). Meinat jamoasida axloqiy tartibotlar ichki boshqaruv prinsiplarini tashkil etadi. Rahbarlar va ishchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tartibi ixtiyoriy ravishda qabul qilinganda o‘zaro ishonch va qadriyatlar tizimi vujudga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, jamoa munosabatlari va xatti-iarakatlarining yijindisi — bu axloqiy normalardir. Unga amal qilish bilan jamoada, tashkilotda maqsad, yagona maslak shakllanadi, uning muvoffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kafolatladi, istiqbol iarakatlarining poydevori yaratiladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, rivojlangan mamlakatlarda jamoaning axloqiy normalari tashkilot falsafasi sifatida shakllantirilgan. Iar bir tashkilotning falsafiy prinsiplari ishlab chiqilgan. Bu prinsiplar uning sha‘ni, qadr-qimmati, ornomusining ifodasi, ayni paytda, jamoaning maqsad-muddaosi, ishlab chiqarayotgan maisulotiga nisbatan mas‘uliyati, o‘z millati, davlati, xalqi oldidagi majburiyatlari kabi umumiy vazifalar mushtarakligiga qaratilgan. Jumladan, xodimlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, malakaviy tajribalari va egallab turgan lavozimlari turli darajada bo‘lganligi uchun barchaning umumiy tartibotlarga amal qilishga qaratilgan prinsiplar joriy etiladi. Yangi ishga olingan xodimlarning meinat faoliyatiga tezda kirishib ketishi, asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olishiga, ma‘muriyatning talablarini bilib olishga imkoniyat berilib, jamoaning joyasi singdiriladi.

Axloqiy normalarga amal qilmaslik jamoada ma‘muriyatchilik, rasmiyatchilik, xodimlar o‘rtasida o‘zaro ziddiyat, guruibozlik kabi nosojlom illatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish sur‘atlari pasayadi, uning nufuziga putur yetkazadi. Maqsad va intilishlar sarobga aylanadi. Natijada xodimlar “kun o‘tariga” yoki nimanidir “o‘ndirib” ishlash ilinjida tobelik bilan faoliyat ko‘rsatadi, ma‘naviy ruiiyat nafs girdobiga, imon-e‘tiqod zujum va zo‘ravonlik tuzojiga o‘raladi. Shuning uchunrahbarmutloq iokimiyatini mustaikamlashga qanchalik intilsa, xodimlar tashabbus va bunyodkorlikdan ko‘ra,

ko'proq itoat qilish, jarayonlarning kuzatuvchisi, turjunlikni afzal ko'ruvchi olomonga aylanib qoladi. Natijada shaxsga sijinish, unga moslashish, moslasha olmaganlarni bairidan voz kechish tendensiyasi kuchayib ketadi. Bunday muhit oxir-oqibatda Rahbarni iam o'z girdobiga tortadi.

Yuqorida muloiaza qilinganidek, rahbaraxloqi, xodimlar axloqi, jamoa axloqi, axloqiy normalarning o'zaro aloiidaligini e'tibordan chiqarmaslik lozim. Boshqaruvda axloqiy munosabatlarni joriy etish uchun Rahbarning shaxsiy axloqiy fazilatlari yetarli emas. Yakka Rahbarning axloqi bilan jamoa munosabatlarini tashkil etish zujum va zo'ravonlikka olib keladi. Yagona shaxsning axloqi, u qanchalik qudratli bo'lmasin, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida shakllangan normalarning o'rnini bosa olmaydi. Maqsad barchaning irodasi itoat qiladigan umumaxloqiy tartibotlarni joriy etishga qaratilishi lozim.

Boshqaruv varahbarfaoliyatida axloqiy normalarga itoatda bo'lish va joriy etish xodimlarning ishonchini mustaikamlash, samarali faoliyatga yo'naltirish, yaxshilik va ezgulik munosabatlarini o'rnatish, moddiy manfaatlarni uyjunlashtirish, ishchilar farovonligini yaratish demakdir. Axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tashkilot falsafasi tamoyillari quyidagi joyalarda o'z ifodasini topishi mumkin:

- mijozlarga sifatli va bejirim mollar ishlab chiqarish va tavsiya qilish;
- mollarni ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan ishchilarni iar tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- mollarning sifatligini ta'minlashga erishish;
- mijozlarga qulay sharoit yaratish, xizmat ko'rsatish sifatini takomillashtirish, do'stona, iliq va samimiy munosabatda bo'lishni rajbatlantirish;
- mijozning talabi va istagi ustuvorligiga amal qilish;
- ish unumdorligini ko'tarish, maisuldorlikka erishish, meinat intizomini mustaikamlashni rajbatlantirish;
- moddiy va ma'naviy farovonlikka erishish;
- yangilik va tashabbusni qo'llab-quvvatlash.

Tashkilotning mazkur falsafiy prinsiplari aslida jamoaning maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi axloqiy normalar sirasiga kiradi. U jamoa a'zolarining manfaatlari mushtarakligini yoxud shunday mushtaraklikda meinat qilish tartiblarini belgilaydi, istiqbol maqsadlarining ravshanligini namoyon qiladi. Axloqiy normalar jamoa, tashkilot meinat faoliyatini barqaror muvozanatda, sojlom iqlimda faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi murvat iisoblanadi.

Axloq jamoa intilayotgan maqsadni belgilaydi, yagona mafkuraviy munosabatlarni shakllantiradi, yangi marralarga erishish yo'llarini takomillashtiradi. Masalan, o'quv yurtining maqsadi bilimli va tarbiyali yosh avlodni tarbiyalashdir. Undan chiqdi, ilm, san'at, madaniyat, sport va boshqa soialardagi yuqori natijalar o'quv yurti maqsadining amaliy ko'rsatkichi iisoblanadi. Bunday maqsadni amalga oshirish va uning sifat-samaradorligini ta'minlash, qolaversa, uzluksiz jarayonga aylantirish uchun o'z kasbini chuqur biladigan, fidoyi, doimo yangilikka intilib ishlaydigan pedogoglarni tanlash va shu

maqsadga safarbar etish lozim bo'ladi. Agar maqsadga erishi yo'lidarabartomonidan e'tiborsizlikka yo'l qo'yilsa, unda moir va tajribali o'qituvchi mutaxassislar ishlamaydi. Xulosa qilinganda, maqsadga nisbatan axloqsiz munosabatda bo'lish ishlab chiqarish samaradorligi, oqibat natijada jamoa o'rtasidagi farovonlikning pasayib ketishiga olib kelar ekan. Masalaning moiiyatiga yanada chuqurroq kiradigan bo'lsak, axloqiy qadriyatlarga amal qilmaslik, o'z istiqboliga iyyonat qilish bilan barobar iodisa. Undan chiqdi, faoliyat maqsadining axloq normalari asosida qurilishi — bu Rahbarning ijtimoiy mas'uliyati madaniyat darajasini belgilovchi mezondir.

Dariaqiqat, muammoning dolzarbligi iam shundaki,rahbaravvalo axloqiy qadriyatlarga amal qilishni rajbatlantiruvchi tashkiliy va amaliy muiit iamda shart-sharoitlarini vujudga keltirishi lozim. Ular qanday normalarda namoyon bo'ladi va qanday vositalar orqali amalga oshiriladi?

Birinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan va davlat organlari Rahbarlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar qonunlarda, me'yoriy iujatlarda, Vazirlar Maikamasi qarorlari, iokimiyat va tashkilot, idoralar nizomlarida amaliy ifodasini topishi zarur.rahbarboshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning iuquqlarini iimoya qilish, insonparvarlik joyalariga sodiqlik, vatanparvarlik va fidoyilik namunalarini namoyon qilish kabi majburiyatlarga amal qilish talablarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Mazkur asosiy vazifalardan kelib chiqib quyi bujinlarning axloqiy normalari ishlab chiqiladi.

Ikkinchi bosqich, axloqiy normalar korxonaning ko'p yillik an'analari, ortirilgan tajribalari, muvaffaqiyatga olib kelgan omillari, jamoaning xoiish-istaklari, ijtimoiy muiofazasi, ish tartibi, oylik maoshi, rajbatlantirish tartiblari korxonamaqsadidan kelib chiqib aniq va oshkora qoidalari tayyorlanadi.

Uchinchi bosqich, axloqiy normalarning moiiyat-mazmuni xodimlarning vazifalaridan kelib chiqib majburiyat va iuquqlarini belgilashga qaratiladi. Ya'ni eng kichik xodimdan tortib, to eng yuqori lavozimgacha yuklatilgan vazifalar mazmuni va tartiblari ishlab chiqiladi. Zero, iar bir xodim o'z iuquqlarini, vazifalarini, majburiyatlarini bilishi lozim.

To'rtinchi bosqich, axloqiy normalarahbarbuyruji yoki umumiy majlis qarori bilan rasmiylashtiriladi. Ayrim iolatlarda axloqiy normalar ishga qabul qilish shartnomalari mazmuniga singdirilishi iam mumkin. Shu tariqa tashkilotning axloqiy qonun-qoidalari bilan iar bir xodim tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi orqali uni bajarish majburiyatini oladi. Axloqiy normalar loyiiasini ishlab chiqish va korxonama yuristi va kadrlar xizmati xodimlariga, zarurat tujilganda tegishli mutaxassislar zimmasiga yuklanadi.

Beshinchi bosqich,rahbarxodimlar o'rtasidagi vazifalar, ularning vakolati chegarasi, o'rinbosar va boshqa bo'lim boshliqlari iamda xodimlar — mutaxassislar o'rtasidagi meinat taqsimotning Nizomiy tartibda belgilanishi jamoada axloqiy munosabatlarning ta'minlanishiga xizmat qiladi. Mazkur tartiblarning joriy etilishi jamoada axloqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Oltinchi bosqich, bo‘limlar, bo‘lim boshliqlari, muavinlar, Rahbarning vakolat mezonlarining belgilanishi, ular o‘rtasidagi subordinatsiya masalalari axloqiy normalarning vujudga kelishiga iamdada shu muhit doirasida faoliyat yuritish tartibini yaratadi. Eng muhimi, jamoada meinat taqsimoti va javobgarlik mas’uliyati vujudga keladi.

Rahbar ish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan axloqiy mezonlar:

- odamlarning senga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishini xoilasang, sen iamdada shunday munosabatda bo‘l;
- tanqid sojlom bo‘lishi va me’yoridan oshib xaqoratga o‘tmasligi muhim. Zero, o‘zingizga va umumiy ishga ziddiyatli munosabatlarga yo‘l ochgan bo‘lasiz. Tanqid agar ta’qibga o‘tib o‘tsa, bunday munosabat xodimning iamiyatiga tegadi va boshqalarning iamdada nafratini oshiradi;
- xodimlar iayoti va ishi bilan astoydil qiziqing, erishayotgan yutuqlarini ta’kidlang, kamchiliklarini aniqlang — bu sizning burchingiz;
